

**“TEMURBEKLAR MAKTABI” HARBIY-AKADEMIK LITSEYI
O‘QUVCHILARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA
TARBIYALASHDA “TARBIYA” FANINING O‘RNI**

Shakirova Nafisa Abrorovna

Toshkent “Temurbeklar maktabi”

Davlat va huquq asoslari fani katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Temurbeklar maktabi” Harbiy akademik-litseylarida tarbiya fanining o‘qitilishida “Tarbiya” fani na‘munaviy dasturidagi mavzular tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, Vatanparvarlik, odob-axloq, komil inson, harbiy, harbiy xizmatchi, harbiy intizom, burch, sadoqat, mas‘uliyat, ma‘rifat, ma‘naviyat, mafkura, milliy g‘oya

Ma‘naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e‘tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma‘naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir.

Shavkat Mirziyoev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Globallashuv asri bo‘lgan XXI asrda murakkab geosiyosiy, mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot kurashlari kuchayib borayotgan bir sharoitda “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” bosh g‘oyasi asosida yoshlarni mintaqa va jahondagi harbiy-siyosiy vaziyatni tahlil qilish va to‘g‘ri baho berish, mamlakat mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil manzilli kurash olib borish, jamiyatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, korrupsiyaga qarshi kurash, oilaviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash hamda ularni yuksak ma‘naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“Temurbeklar maktablari” harbiy-akademik litseylari oldidagi eng muhim vazifa o‘quvchilarda xalqimizning ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmat, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish, xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo‘lida o‘zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O‘zbekiston

xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashdan iborat.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartiga muvofiq "Temurbeklar maktablari" akademik litseylarida o'qitiladigan "Tarbiya" fani o'quv dasturi ma'naviy-axloqiy sohada zarur bo'ladigan: harbiy odob-axloq, irodaviylik, komil inson, mehr-oqibatlik, vatanparvar, Vatan himoyachisi, harbiy intizom, burch, sadoqat, mas'uliyat, ma'rifat, ma'naviyat, mafkura, milliy g'oya, innovatsion fikrlash kabi tayanch tushunchalardan iborat mavzularni o'z ichiga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli qarori va unga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi", Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi PQ-140-sonli qarori bilan amaliyotgan kiritilgan "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi", Qurolli Kuchlar zaxirasini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan harbiy-akademik litseylar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarini ta'lim va tarbiya jarayonida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar asos qilib olingan.

Ushbu qarorda:

✓ o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish;

✓ xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo Amir Temurning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo'lida o'zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash;

✓ o'quvchilarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha mustahkam bilimlarni shakllantirish, shuningdek, ularga harbiy ishdagi boshlang'ich bilimlarni singdirish;

✓ notiqlik va yetakchilik xislatlariga ega, jismonan rivojlangan, chidamli, mard va jasur Vatan himoyachilarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar rezervini shakllantirish maqsadida

respublikaning oliy, oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun munosib nomzodlarni tayyorlash¹ "Temurbeklar maktablari"ning asosiy vazifasi etib belgilangan.

"Temurbeklar maktabi" uchun bizning fikrimizcha, "Tarbiya" fani o'quv dasturi va mavzulari "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2020-yil 14-avgustdagi № 3-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv rejalarga yondashilgan holda harbiy-akademik litsey o'quvchilarining kundalik turmush hamda kelgusidagi kasbiy yo'nalishidan kelib chiqqan holda alohida tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Sababi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli qaroriga muvofiq 10 sinf uchun 30 ta mavzu va 11 sinf uchun 30 ta mavzuni o'z ichiga qamrab olgan va umumiy 68 soat fan uchun berilgan. SHuningdek darsliklarda berilgan mavzular umumiy jihatdan maktab o'quvchilari uchun tuzilgan.

Ammo "Temurbeklar maktablari" o'quvchisi bo'lg'usi ofitser – Vatan himoyachisi, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida kamolotga etgan shaxs bo'lib shakllanishi, o'zgalarga vatanparvar shaxsning yorqin namunasi bo'lib xizmat qilishi lozim. Bu esa o'z navbatida harbiy-akademik litsey o'quvchilari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida fan sifatida kiritilgan "Tarbiya" fani yo'nalishidan farq qilgan holda harbiy-akademik litsey o'quvchilarini yuksak madaniyat, odob-axloq xislatlariga ega bo'lgan komil harbiy xizmatchi sifatida shakllantirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Agar biz umumta'lim maktablari uchun o'quv jarayoniga kiritilgan mavzularni tahlil qilsak: X sinf "Tarbiya" o'quv dasturida 4 bob 30 mavzu:

I bob. Oilaviy hayot qadriyatlari (9soat);

II bob. Inson va jamiyat (8 soat);

III bob. Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar (7 soat);

IV bob. Mehnatsevarlik, tadbirkorlik va kasbiy ko'nikmalar (10 soat);

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4375-sonli Manba.: Lex.uz

I BOB. OILAVIY QADRIYATLAR	
1-mavzu: Vatan yagona.....	6
2-3-mavzu: Oila – Vatan ichra Vatan	10
4-5-mavzu: Oila – baxt qo'rg'oni	17
6-7-mavzu: Oiladagi burch va mas'uliyat	23
8-mavzu: Baxt manzillari	31
II BOB. INSON VA JAMIYAT	
9-mavzu: Mahalla – qadriyatlar beshigi	38
10-mavzu: Jamiyatning ma'naviy asoslari	44
11-12-mavzu: Din va madaniyat	50
13-14-mavzu: Dunyo dinlarida insonparvarlik g'oyalari	57
15-mavzu: Eng katta meros	63
III BOB. IJTIMOIIY TARMOQ: IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR	
16-17-mavzu: Buzg'unchi g'oyalar	70
18-19-mavzu: Jaholatga qarshi ma'rifat	76
20-mavzu: Xavfsiz media ummoni	83
21-mavzu: Soxta xabarlar ortida nima bor?	87
IV BOB. MEHNATSEVARLIK, TADBIRKORLIK VA KASBIY KO'NIKMALAR	
22-mavzu: Baxtli hayot poydevori	92
23-24-mavzu: Iste'mol va tadbirkorlik madaniyati	96
25-26-mavzu: Kasb tanlash sirlari	104
27-28-mavzu: O'rganishdan to'xtamang	111
29-30-mavzu: Iroda	119

2

XI sinf “Tarbiya ” o‘quv dasturida 4 bob 30 mavzu

I bob. Oilaviy qadriyatlar (7 soat);

II bob. Inson ma'naviyati (11 soat); III bob.

Go‘zal fazilatlar (8 soat);

IV bob. Shaxsiy rivojlanish (8 soat).

² Tarbiya: 10-sinf uchun darslik. N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Maxmudov, D. Ro‘ziyeva, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova. Toshkent.: Respublika ta-lim markazi, 128b.,- 2022

I BOB. OILAVIY QADRIYATLAR	
1-mavzu: Vatan taraqqiyotiga men ham mas'ulman.....	4
2-mavzu: Erkin va farovon hayot mazmuni.....	10
3-4-mavzu: Dadil qadamlar bilan katta hayot sari.....	14
5-mavzu: Oila mas'uliyati, sha'ni va qadri.....	21
II BOB. INSON MA'NAVIYATI	
6-mavzu: Ibrat maskani.....	25
7-mavzu: Bag'rikenglik.....	29
8-9-mavzu: Ksenofobiya	36
10-11-mavzu: Missionerlik – yoshlar kelajagiga tahdid.....	42
12-13-mavzu: Kibermakonda axborot iste'moli madaniyati.....	50
14-15-mavzu: Dunyo dinlarida tinchlik g'oyasi.....	57
III BOB. GO'ZAL FAZILATLAR	
16-17-mavzu: Tuyg'ularning xilmaxilligi.....	65
18-mavzu: Nafosat va ma'naviyat.....	72
19-20-mavzu: Surat va siyrat.....	78
21-22-mavzu: Etiket.....	89
IV BOB. SHAXSIY RIVOJLANISH	
23-24-mavzu: Renessans poydevori.....	95
25-26-mavzu: Halollik vaksinasi.....	104
27-28-mavzu: Havas qil va oldinga intil.....	111
29-mavzu: Mehnatidan qadr topganlar.....	118
30-mavzu: Men tanlagan yo'l.....	123

3

Har bir bobda mavzular yoritilgan ammo mavzular uchun berilgan soat harbiy-akademik litsey uchun berilgan soat bilan to'g'ri kelmaydi.

Umumta'lim maktablaridan farqli ravishda "Temurbeklar maktablari" harbiy-akademik litseylarda o'qitiladigan "Tarbiya" fani ijtimoiy-gumanitar fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, o'quvchilar uni 1-bosqich 1-semestrda o'rganadilar. O'quv faniga ajratilgan umumiy yuklama 49 soat bo'lib, undan 32 soat nazariy mashg'ulot, 4 soat seminar mashg'ulot va 13 soat mustaqil ta'limga ajratilgan. Amalda 10 va 11 sinflar uchun belgilangan 60 ta mavzuni, ya'ni 10 sinf uchun 30 ta mavzu va 11 sinf uchun 30 ta mavzu 36 satli auditoriya mashg'ulotlarida qamrab olaolmaymiz.

³Tarbiya [Matn]: 11-sinf uchun darslik / D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Islomov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva, Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuhammedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilarini axloqiy, havbiy-vatanparvarlik xislatlarini shakllantirishda qo‘yilgan asosiy vazifalardan kelib chiqqan holda 2022/2023 o‘quv yilida “Tarbiya” fani o‘quv dasuri ishlab chiqildi hamda Respublika Ma’naviy tarbg‘ibot markazi mutaxassislaridan olingan xulosa asosida harbiy-akademik litsey pedagogik kengashi qarori bilan o‘quv jarayoniga kiritildi. Bu dastur bo‘yicha ta’lim quyidagilarga yo‘naltiriladi:

“Tarbiya” fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi

№	Mavzu	Soatlar			
		Jami	Nazariy mashgʻulot	Seminar mashgʻulot	Mustaqil taʼlim
1-bosqich					
1	“Temurbeklar maktabi” oʻquvchisining odob-axloq qoidalar	2	2		
2	Vatan taraqqiyoti oʻzini anglashdan boshlanadi	2	2		
3	SHarq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari	4	2		2
4	Jaloliddin Manguberdi jasorati – Vatan himoyachisi maʼnaviyatini shakllanishidagi asosiy mezon	4	2		2
5	Amir Temur va temuriylar davri maʼnaviy–axloqiy qarashlari	4	2		2
6	“Temur tuzuklari”da insonga xos fazilatlarining yoritilishi	2		2	
7	Harbiy xizmatchining odob-axloq qoidalar	4	2		2
8	Vatanni himoya qilish eng oliy qadriyat	2	2		
9	Abdulla Avloniyning “Turki guliston yoxud axloq” asarida tarbiya masalasi	2	2		
10	Oila–tarbiya oʻchogʻi	4	2		2
11	Ota–ona va farzandning oiladagi burchi	3		2	1
12	Islom dinida odob-axloq masalalarining yoritilishi	3	2		1
13	Tashqi va ichki maʼnaviy tahdidlarning mazmun mohiyati	2	2		
14	Maʼnaviy axloqiy qarashlarni shakllantirishda sanʼat va madaniyatning oʻrni	2	2		
15	Globalashuv jarayonining yoshlar tarbiyasiga taʼsiri	2	2		
16	Jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashish zaruriyati	3	2		1
17	Yangi Oʻzbekiston yoshlarining maʼnaviy sifatlari	2	2		
18	Yangi Oʻzbekiston Taraqqiyot strategiyasi – barkamol yosh avlodni tarbiyalash dasturi	2	2		
	Jami	49	32	4	13

Mazkur dastur:

a) ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi bo‘yicha:

- burch hamda mas'uliyat hissini anglaydi va ularga rioya qiladi;
- milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni, milliy o'zlikni anglaydi va unga munosib bo'lishga harakat qiladi;
- o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay oladi va o'zgaralar tanqidini to'g'ri qabul qiladi;
- shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantiradi;
- nizoli vaziyatlarda o'zini o'zi idora qila oladi;
- ma'naviy-axloqiy fazilatlarni targ'ib qila oladi;
- harbiy intizom, kompetentlik, burchga mas'uliyat kabi xislatlari bilan o'zgalarga namuna bo'la oladi.

b) harbiy kompetensiyasi bo'yicha mintqa va jahondagi harbiy-siyosiy vaziyatni tahlil qiladi, to'g'ri baho beradi va munosabat bildiradi;

- tinchlik va osoyishtalikning qadriga etadi va ta'minlanishiga hissa qo'sha oladi;

- umumta'lim maktablari o'quvchilarini yuksak ma'naviyatli, axloqiy sifatlarga ega vatanparvar qilib tarbiyalashga hissa qo'shadi.

Bizning fikrimizcha, "Temurbeklar maktabi o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda va ta'lim berishda Tarbiya fani yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi mavzular asosida dars jarayonini tashkil etish yuksak axloqiy sifatlarga ega, vatanparvar harbiy xizmatchini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4375-sonli Manba.: Lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli qarori va unga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan Manba.: Lex.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi PQ-140-sonli qarori bilan amaliyotgan kiritilgan "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" Manba.: Lex.uz

4. Tarbiya [Matn]: 11-sinf uchun darslik / D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Islomov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva, Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova.– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

5. Tarbiya: 10-sinf uchun darslik. N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Mahmudov, D. Ro'ziyeva, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova. Toshkent.: Respublika ta-lim markazi, 128b.,-2022